

**JADIDCHILIKDAN UCHINCHI RENESSANS SARI: HAMDA PADARKUSH
DRAMMASIDAGI G'OYALARNING DAVOMIYLIGI**

**ОТ ДЖАДИДИЗМА К ТРЕТЬЕМУ РЕНЕССАНСУ: ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ
ИДЕЙ В ДРАМЕ „ПАДАРКУШ“**

**FROM JADIDISM TOWARD THE THIRD RENAISSANCE: THE
CONTINUITY OF IDEAS IN THE DRAMA “PADARKUSH”**

Jumaboyeva Xulkar

O'zbekiston Xalqaro Islomshunoslik Akademiyasi

Islomshunoslik yo'nalishi 3-kurs talabasi

+998881143025

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek jadidchilik harakatining yetakchisi Mahmudxo'ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi ijtimoiy-ma'rifiy va badiiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda ilgari surilgan ilmsizlik va jaholatning fojiali oqibatlari, ota-onaning farzand tarbiyasidagi mas'uliyati kabi masalalar bugungi kunning dolzarb muammolari bilan qiyoslanadi. Maqolada dramaning o'zbek milliy teatri va ijtimoiy ongining uyg'onishidagi o'rni, shuningdek, uning “Uchinchi Renessans” poydevorini yaratishdagi g'oyaviy ahamiyati yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Mahmudxo'ja Behbudi, “Padarkush”, jadidchilik, ma'rifatparvarlik, milliy teatr, jaholat, ta'lim islohoti, ijtimoiy fojia, ma'naviy uyg'onish, tarbiya.*

Аннотация: *В данной статье проводится социально-просветительский и художественный анализ драмы “Падаркуш” (“Отцеубийца”) Махмудходжи Бехбуди — лидера узбекского джадидского движения. Трагические последствия невежества и безграмотности, а также ответственность родителей за воспитание детей, выдвинутые в произведении, сопоставляются с актуальными проблемами современности. В статье освещается роль драмы в становлении узбекского национального театра и пробуждении общественного сознания, а также её идеологическое значение в создании фундамента “Третьего Ренессанса”.*

Ключевые слова: *Махмудходжа Бехбуди, “Падаркуш”, джадидизм, просветительство, национальный театр, невежество, реформа образования, социальная трагедия, духовное пробуждение, воспитание.*

Abstract: *This article provides a socio-enlightenment and artistic analysis of the drama “Padarkush” (The Patricide) by Mahmudkhodja Behbudi, the leader of the Uzbek Jadid movement. Issues raised in the work, such as the tragic consequences of ignorance and illiteracy, and the responsibility of parents in child upbringing, are compared with the pressing problems of the present day. The article highlights the role of the drama in the*

establishment of the Uzbek national theater and the awakening of social consciousness, as well as its ideological significance in creating the foundation for the “Third Renaissance.”

Keywords: Mahmudkhodja Behbudi, "Padarkush", Jadidism, enlightenment, national theater, ignorance, educational reform, social tragedy, spiritual awakening, upbringing.

Mahmudxo‘ja Behbudi XX asr boshidagi Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, serqirra ijodkor va yetakchi jamoat arbobidir. Uning faoliyati markazida jamiyatni isloh qilish, xalqni ma‘rifatga chorlash va zamonaviy ta‘lim tizimini joriy etish masalalari turgan. Ushbu ulug‘vor g‘oyalar muallifning o‘zbek dramaturgiyasiga tamal toshi bo‘lib xizmat qilgan yagona sahnasari — “Padarkush” (1911) dramasida o‘zining eng chuqur badiiy o‘rnini topgan. 1913-yilda sahna yuzini ko‘rgan ushbu asar millat ma‘naviyatini uyg‘otishga qaratilgan ilk fojiviy “hayqiriq” sifatida baholanadi.

I. Karimov Behbudi va uning asarlarini milliy g‘oya kontekstida tahlil qilib, ma‘naviy uyg‘onishning asosi sifatida baholagan:

“Behbudi o‘zining “Padarkush” dramasi bilan o‘zbek teatr san‘atiga asos soldi. Bu asar millat dardi, jaholatga qarshi isyon va ma‘rifatga chaqiriqning yuksak namunasi bo‘lib, xalqimizning o‘zligini anglashida muhim burilish yasadi.”²³

- “Jaholatga qarshi isyon” va zamonaviy tarbiya.

Behbudi o‘z asarida fojining bosh sababchisi sifatida ilmsizlikni ko‘rsatgan. Bugungi kunda jaholat tushunchasi faqat savodsizlikni emas, balki ma‘naviy bo‘shliqni ham anglatadi. Hozirgi globallashuv davrida yoshlarni turli yot g‘oyalardan himoya qilishda, ularda axborotni saralash madaniyatini (media-savodxonlik) shakllantirishda asosiy tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

- Ma‘naviy uyg‘onish — milliy yuksalish asosi.

Dramaning “xalqimizning o‘zligini anglashida burilish yasadi” deb baholanishi bejiz emas. Zero, o‘zligini anglagan millat o‘z kelajagini ilm bilan quradi. Behbudiyning orzusi bo‘lgan “ikki tilda so‘zlashuvchi, zamonaviy ilmga ega avlod” g‘oyasi bugun Yangi O‘zbekistonning ta‘lim islohotlarida o‘z aksini topmoqda. Asar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ilm-ma‘rifat faqat shaxsiy manfaat emas, balki millatning yashab qolish shartidir.

- Teatr — ijtimoiy islohotlar minbari.

“Padarkush” o‘zbek teatr san‘atiga asos solish barobarida, san‘atning jamiyat hayotidagi o‘rnini belgilab berdi. Behbudi teatrni “ibratxona” deb atagan bo‘lsa, I. Karimov uni “millat dardi”ni ko‘rsatuvchi ko‘zgu sifatida e‘tirof etadi. Bugungi kunda ham jamiyatdagi illatlarni (korruptsiya, loqaydlik, mas‘uliyatsizlik) fosh etishda san‘at asarlari eng ta‘sirchan vosita bo‘lib qolishi lozim.

- Milliy g‘oyaning hayotiyli.

Behbudi merosi milliy g‘oya kontekstida tahlil qilinganda, u konservatizm (eskilikka yopishib olish) emas, balki modernizatsiya (yangilanish) ramzi ekani namoyon bo‘ladi. Asar

²³ Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. – B. 46-48.





orqali jamiyatga yetkazilgan “bolangizga ilm bering” degan oddiy, ammo hayotiy xitob bugungi Uchinchi Renessans poydevorini qurayotgan jamiyatimiz uchun eng asosiy ma’naviy dasturilamaldir.

Behbudiy asarlari va unga berilgan davlat miqyosidagi yuksak baho — xalqning o‘z o‘tmishidan saboq chiqarib, ilm-fan cho‘qqilari sari intilishiga xizmat qiluvchi ma’naviy mayoqdir.

Sh. Mirziyoyev Behbudiy me’rosini zamonaviy ta’lim va “Uchinchi Renessans”ning ideologik poydevori sifatida talqin etadi:

“Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi o‘z davrida jamiyatni uyg‘otishga qaratilgan hayqiriq bo‘lgan bo‘lsa, bugun u biz uchun ma’rifat yo‘lidagi xatolarimizni anglatuvchi saboqdir. Jadid bobolarimizning “Maktab kerak, maktab kerak, maktab kerak” degan xitoblari bugungi ta’lim islohotlarimizning bosh g‘oyasiga aylandi.”²⁴

- “Maktab kerak” – Milliy xavfsizlik va taraqqiyot asosi:

Jadid bobolarimizning, xususan Behbudiyning “Maktab kerak” degan hayqirig‘i bugun davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Agar 1913-yilda bu hayqiriq millatni saqlab qolish uchun aytilgan bo‘lsa, bugungi kunda bu xitob raqobatbardosh avlodni shakllantirish shartidir. Maqolada ta’kidlanganidek, ta’lim islohotlari (maktablar qurilishi, o‘qituvchi maqomini oshirish) – bu Behbudiy orzularining amaliy ijrosidir.

- O‘tmish xatolaridan saboq chiqarish:

“Padarkush” biz uchun ma’rifat yo‘lidagi xatolarimizni anglatuvchi saboqdir. Bu shuni anglatadiki, ilm-fan va kitobxonlikdan uzoqlashish jamiyatni inqirozga va “ma’naviy qashshoqlikka” yetaklaydi. Asardagi fojia – ilmga sarmoya kiritmagan jamiyatning fojiasidir. Bugungi kunda ta’linga ajratilayotgan e’tibor mana shunday "tarixiy xatolar" qaytarilmasligining kafolatidir.

- Jadidchilik g‘oyalari – Yangi O‘zbekiston mafkurasi:

Behbudiy merosi bugun "Uchinchi Renessans"ning ideologik poydevori sifatida talqin etilmoqda. Bu shunchaki maqtov emas, balki “milliy g‘oya”ni ilm orqali qurish formulasidir. Prezidentning bu fikrlari jamiyatga shunday xabarni beradi: jadidlar boshlagan, ammo chala qolgan ma’rifiy inqilobni bugun biz ilm-fan, texnologiya va ma’naviyat uyg‘unligida yakuniga yetkazishimiz shart.

- Zamonaviy dunyoda “Tirik Behbudiy”:

Bugun Behbudiyning "Padarkush" asari har bir ota-ona uchun "ogohlik qo‘ng‘irog‘i” bo‘lishi kerak. Prezident xitobi shuni uqtiradiki, farzandiga bilim bermagan ota o‘z qo‘li bilan “ma’naviy qotil”ni tarbiyalaydi. Shuning uchun ham, bugungi ta’lim islohotlari shunchaki tizimli o‘zgarish emas, balki millatning yashab qolishidir. “Behbudiy o‘zining “Padarkush” dramasi bilan o‘zbek milliy teatriga asos soldi. Bu asar shunchaki spektakl emas, balki g‘aflatda qolgan millatni uyg‘otish uchun urilgan bong edi. Behbudiy

²⁴ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 214.



“Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur” degan shiorni o'rtaga tashlab, xalqni ma'rifatga chorlagan birinchi jasorat sohibidir.”²⁵

“Padarkush” asarining o‘zagi — ilm-ma’rifatdan mosivo, tarbiyasiz muhitda shakllangan avlodning nafaqat oila, balki butun jamiyat uchun naqadar xavfli kuchga aylanishini ko‘rsatishdan iborat. Behbudiy ushbu dramatik voqelik orqali o‘sha davrning eng og‘riqli illatlarini fosh etadi:

- Ota-onaning farzand tarbiyasidagi loqaydligi;
- Madrasalarning zamon talabidan orqada qolishi;
- Ilm-fanga mensimaslik va moddiy manfaatni hayot maqsadi deb bilish.

Muallif nazarida ushbu muammolar majmuasi jamiyatda “padarkush”likka, ya’ni nafaqat biologik otaga qasd qilish, balki milliy ildizlar, qadriyatlar va ma’naviy yemirilishga olib keladi.²⁶

Dramaning markazida inson ruhiyati va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi murakkab ziddiyat yoritilgan. Bosh qahramon — o‘g‘il obrazi psixologik jihatdan teran chizilgan bo‘lib, u nafaqat otasini, balki o‘z vijdonini, or-nomusini va kelajagini mahv etgan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Otasi esa milliy qadriyatlar, mehr-muhabbat va nasl-nasab timsolidir. Uning o‘limi — bu faqat bir insonning emas, balki butun bir avlodning ma’naviy tanazzulga yuz tutishining ramzi sifatida talqin qilinadi. Behbudiy asarni keng ommaga mo‘ljallab, sodda va xalqchil tilda yozgan. Dramaning didaktik ruhi kuchli bo‘lib, hayotiy saboqlarga boy. Dialoglarning qisqa, lo‘nda va mazmunga to‘laligi sahna talablari bilan uyg‘unlashgan. Yozuvchining maqsadi san‘at orqali xalqni ogoh qilish bo‘lgani uchun tilning ravonligi va obrazlardagi aniq ijtimoiy-tarbiyaviy ma’nolar asarning ta’sirchanligini oshirgan. “Padarkush” dramasi faqat o‘z davrining mahsuli emas, balki bugungi kunning ham dolzarb masalalarini yorituvchi ma’naviy ko‘zgudir. Zamonaviy jamiyatdagi oilaviy nizolar, ilm-fanga loqaydlik va axloqiy yemirilish kabi muammolar ushbu asar orqali tahlil qilinganda, uning o‘lmas ahamiyati yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Bugungi ta’lim va tarbiya tizimida ushbu asar namunasi ota-onalar va murabbiylar zimmasidagi yuksak mas’uliyatni yana bir bor eslatadi.

S.Ahmad yozganidek: “Buyuk ustoz Mahmudxo‘ja Behbudiy esa safardan tom ma’noda vijdoni uyg‘onib, millat vijdoniga aylanib qaytdi. Qaytganda ham bo‘sh kelmadi, Turkiya va Arabiston hamda Misrdan talaygina kitob va to‘plamlarni olib keldi...”²⁷ Behbudiyning xorij safarlari shunchaki sayohat emas, balki ijtimoiy mas’uliyatni anglash darsi bo‘ldi. Dunyo taraqqiyotini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan inson millatining qoloqligiga chidab tura olmaydi. Bugungi kunda xorijda ta’lim olayotgan yoki ishlayotgan yoshlarimiz uchun Behbudiy obrazi – vatanparvarlikning yuksak namunasidir. Safardan qaytgach, o‘z shaxsiy manfaatini emas, millat dardini o‘ylash — haqiqiy ziyolining burchidir. Behbudiyning Turkiyadan, Misrdan "talaygina kitoblar" olib kelishi — bu millatning axborot bazasini yangilashga bo‘lgan intilishdir. O‘sha davrda bu kitoblar “yangi dunyoqarash”

²⁵ Karimov I.A. "Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz". 7-jild. — Toshkent: O‘zbekiston, 1999. — B. 124-126.

²⁶ <https://oliymahad.uz/44832> (Murojaat sanasi: 12.03.2026)

²⁷ Ahmad, S. Mahmudxo‘ja Behbudiy. (hayoti, faoliyati, vafoti). — Toshkent: Info kapital Books, 2024. — B. 19.



urug'larini sochgan bo'lsa, bugun bu g'oya yoshlarni jahon ilm-fani yutuqlarini (innovatsiyalarni) yurtimizga olib kirishga undaydi. Behbudiy kutubxonasi va asarlari — milliy ma'naviyatimizni xalqaro tajriba bilan boyitishning ilk namunasi edi. Behbudiy xorijdan faqat kitob emas, balki islohotlar andozasini ham olib keldi. U o'zga davlatlar tajribasini ko'rib, "bizga ham shunday maktab, shunday teatr kerak" degan xulosaga keldi. Bu yondashuv bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan xalqaro standartlarga asoslangan ta'lim tizimi bilan to'liq hamohangdir. Biz dunyoni o'rganib, eng yaxshi yutuqlarni o'z milliy qadriyatlarimizga moslab tatbiq etishimiz kerak. "Qaytganda ham bo'sh kelmadi" iborasi Behbudiyning kurashchan xarakterini ifodalaydi. U nafaqat bilim olib keldi, balki olingan bilimlarni amaliyotga (gazetalar chop etish, maktablar ochish, teatr sahnasini yaratish) aylantirishda qat'iyat ko'rsatdi. Bu tahlillar yosh avlodni shunchaki bilim egallash bilan cheklanmay, uni jamiyat ravnaqi uchun amaliy natijaga aylantirishga chorlaydi. S. Ahmad ta'riflagan Behbudiy siymosi — bu harakatdagi ma'rifatparvarlikdir. Uning xorijdan kitoblar olib kelishi va millat vijdoniga aylanishi, bugungi kunda har bir ziyoli va rahbar uchun o'z ustida ishlash hamda millat manfaatini hamma narsadan ustun qo'yish borasida ulkan ma'naviy dars bo'lib xizmat qiladi. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" asari o'zbek adabiyotining nodir durdonasi bo'lib, unda ma'naviy, ijtimoiy va ma'rifiy masalalar chuqur yoritilgan. Ushbu asarni o'rganish va sahnalashtirish — o'zbek ma'naviyatini, ijtimoiy mas'uliyatni tiklash yo'lida muhim qadamdir. "Padarkush" — bu fojia emas, balki ogohlikka chorlov, og'ir haqiqatning oynasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmad, S. Mahmudxo'ja Behbudiy. (hayoti, faoliyati, vafoti). – Toshkent: Info kapital Books, 2024. – B. 19.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 214.
3. Karimov I.A. "Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz". 7-jild. — Toshkent: O'zbekiston, 1999. — B. 124-126.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 46-48.
5. <https://oliymahad.uz/44832> (Murojaat sanasi: 12.03.2026)

